

**BOLALARGA QUVONCH ULASHGAN OVUNCHOQ YOHUD
HUSHTAK O'YINCHOQLAR TARIXI**

*O'zbekiston amaliy san'at va
hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi
Katta ilmiy xodimi
Umida Usanova*

Annotatsiya. Mazkur maqolada loydan yaratilgan hushtak o'yinchoqlar, ularning qadimiy ildizlari va xalq amaliy san'atidagi o'rni keng yoritiladi. Shuningdek, hushtak o'yinchoqlarni yasash jarayoni, ularning estetik va ramziy ma'nolari, O'zbekistondagi yirik markazlar – Rishton, Xorazm, Buxoro va Samarqand hududlaridagi hunarmandchilik maktablari faoliyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda ijod qilgan mashhur usta-hunarmandlarning ijodi va ularning milliy madaniyatni boyitishdagi o'rni haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Hushtak-o'yinchoq, Neolit, Uba, marosim, ramz, naqsh, haykalcha, kulol, haykaltarosh, usta-hunarmand, maktab, plastika, kolleksiya, qadriyat, urf-odat, ko'rgazma.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются глиняные свистульки, их древние корни и место в народном декоративно-прикладном искусстве. Освещаются процесс изготовления свистулек, их эстетическое и символическое значение, а также деятельность крупнейших центров Узбекистана – Риштан, Хорезма, Бухары и Самарканда, где развивались ремесленные школы. Кроме того, внимание уделяется творчеству известных мастеров-ремесленников и их роли в обогащении национальной культуры.

Ключевые слова: Свистулька-игрушка, Неолит, Уба, обряд, символ, орнамент, статуэтка, гончар, скульптор, мастер-ремесленник, школа, пластика, коллекция, ценность, обычай, выставка.

Annotation. This article explores clay whistles, their ancient origins, and their place in traditional folk applied arts. It examines the process of making these whistles, their aesthetic and symbolic meanings, as well as the major centers of craftsmanship in Uzbekistan – Rishton, Khorezm, Bukhara, and Samarkand. Furthermore, the article highlights the work of renowned master craftsmen and their contribution to the enrichment of national culture.

Key words: Whistle-toy, Neolithic, Uba, ritual, symbol, pattern, figurine, potter, sculptor, craftsman, school, plasticity, collection, value, custom, exhibition.

KIRISH

Insonlar uchun bolalarning kulgusi va quvonchini ko'rishdan ham ortiq zavq bo'lmasa kerak. "Bolaning begonasi bo'lmaydi" – deganlaridek xoh u farzandimiz bo'lsin xoh begona, ularning ko'nglini olishni, yuzlariga tabassum yugurtirishni istaymiz. Bunda bizga shirinliklar bilan bir qatorda o'yinchoqlar yaqindan yordam beradi. Hozirgi vaqtda bolalar o'yinchoqlari xususida so'z borar ekan ko'z oldimizga turli-tuman o'yinchoqlarga to'la bo'lgan do'konlar keladi. Ularga kirganingiz zamon necha yoshda bo'lishingizdan qat'iy nazar yana bolalikka qaytgingiz, bolalarga qo'shib shu o'yinchoqlarni o'ynatingiz keladi. Bolalar o'yinchoqlari aslida uzoq tarixga ega bo'lgan hunarmandlarning ijod mahsuli desak adashmagan bo'lamiz.

O'zbekistonda maxsus loydan nafaqat idish-tovoqlar yasash balki turli xildagi sopol o'yinchoq-hushtaklar va haykalchalar yasashda ham keng foydalanilgan. Sopol o'yinchoqlar, sopol buyumlar kabi qariyb to'rt ming yillik tarixga ega. Neolit davriga mansub qazilmalar orasidan idish qoldiqlari bilan birgalikda loydan yasalgan hushtak bo'laklari ham topilgan. Xalq ta'biriga ko'ra, ular mo'jizaviy kuchga ega sanalgan. Masalan, Navro'z bayramida, kun va tun Hushtak o'yinchoqlar [1, 51-b, 1-rasm].

tengligi paytida hushtak chalib "rahmon suvi"ni chorlash udumi kelgusi yildagi serhosillikka umid ma'nosini anglatgan [1, 16-b].

Hushtak o'yinchoqlar – bu sopoldan yoki yog'ochdan yasaladigan, puflaganda hushtak ovozi chiqaradigan xalq o'yinchoqlari. Ular nafaqat bolalarni quvontirish, balki qadimda marosimiy va ramziy maqsadlarda ham ishlatilgan. [1-rasm]

Hushtak o'yinchoqlar, avvalo, tabiiy loydan yasaladi. Hunarmand ustalar loyni bir necha bosqichda tayyorlab oladilar: loy elakdan o'tkaziladi, qo'shimchalardan tozalanadi va qo'lga qulay bo'lishi uchun "pishiriladi". So'ngra usta hushtakning shaklini yasaydi. Shakl berilgach, o'yinchoqning ichki qismi o'yib olinadi va maxsus hushtak mexanizmi qo'shiladi. So'ng quritilgan buyum tandirda yoki maxsus pechda yuqori

haroratda pishiriladi. Ba'zan ustalar uni bo'yoqlar bilan bezab, naqsh va ramziy belgilar bilan ziynatlaydilar.





O'zbek xalq amaliy san'atida sopol hushtakchalar ko'pincha hayvon shaklida (ot, qush, echki va boshqalar) yasalgan. Chunki odamlar tabiat va hayvonlarni ramziy kuch deb bilishgan. Ularni ko'proq bolalarga sovg'a qilishgan, lekin ayrim hollarda yomg'ir chaqirish marosimida yoki yovuz kuchlardan saqlanish ramzi sifatida ham

qo'llangan. Toshkent, Xorazm, Buxoro va Farg'ona hududlarida bunday hushtak o'yinchoqlarni yasash an'anasi bo'lgan. O'yinchoq sifatida hushtaklar bola uchun oddiy musiqa asbobi bo'lib xizmat qilgan. Bola hushtak chalib ovoz chiqarishni o'rgangan, bu esa nutq va nafasni rivojlantirishga ham yordam bergan. Ularning yuzasi rangli naqshlar, chiziqlar, nuqtalar bilan bezatilgan. Hushtakning ovozi ichiga havo to'ldirilgan maxsus bo'shliq va kichik teshiklar orqali hosil bo'ladi. Ba'zi ustalar suv solib chalinadigan hushtaklar yasashgan - ularning ovozi qush sayrashiga o'xshaydi. Hushtak o'yinchoqlarning chiroyli ovozi bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirgan, shu bilan birga ularni tinchlantirish uchun ham qo'llangan. Har bir usta xushtakka o'z qo'lga xos bezak, naqsh yoki sir berib ishlagan. Shu bois ikki xushtak hech qachon bir-biriga aynan o'xshamagan.

Hushtak o'yinchoqlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular bir vaqtning o'zida bir nechta hayvonlarni o'zida mujassam etganligini payqash mumkin. Misol uchun, haykalchalarda filniki kabi yirik quloqlar va hartumni, qo'chqorniki kabi gajaksimon shoxlar, yirtqich hayvonlar singari uzun dumni ko'rishimiz mumkin. Bu bejiz emas, ya'ni Islom dini qoidalariga ko'ra tabiatda mavjud bo'lgan tirik jonzoqlarning suratini chizmaslik va haykalini yasamaslikka buyurilganligi bois, usta-hunarmandlar o'yinchoqlarga shakl berishda tabiatda mavjud bo'lmagan afsonaviy to'qima obrazlarni gavdalantirishga harakat qilishgan. Har bir o'yinchoqning bo'yin qismida kichik "kesik" mavjud. Bu kesik haykalchalarning jonsizligidan dalolat beradi. Agar haykalchada kesik bo'lmasa bolakay bu o'yinchoqni faqat bir kun davomida, shomga qadar o'ynagan, so'ng sindirib tashlangan. Shomdan so'ng bu o'yinchoqni o'ynashni davom etish bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi degan

Hamrobibi Rahimova [2, 287-b, 2-rasm]. qarashlar mavjud bo'lgan.

XX asrning ikkinchi yarmida rang-barang naqshlar bilan bezatilgan hushtaklar Buxoro viloyatining qadimiy Uba qishlog'ida yashagan kulol-usta Hamrobibi Rahimovani dunyoga tanitdi [2-rasm]. Rahimova Hamrobibi Bozor qizi (1896-1979) Vobkent tumani, Uba qishlog'ida - sopol o'yinchoqlar yasovchi kulol,

qadimiy an'anaviy mayda shakllar haykaltaroshligi namoyondasi. Hamrobibi loydan hushtak o'yinchoqlar tayyorlash, ularni o'choqda qizdirib pishitish, bo'yash)ni Shamsibibi kampirdan o'rgangan. 1970-1975 yillar, O'zbekiston Rassomlar uyushmasi Badiiy fondida, 1978-79-yillar "Usto" birlashmasida usta qadimiy xalq san'ati uslubida ijod qilgan, u yaratgan sodda va samimiy yumorli mazmun bilan boyitilgan o'yinchoqlar afsonaviy qush va hayvonlarning (ot, fil, eshak qo'chqor, tovuq, toychoq, kiyik, qo'zichoq) shakllaridan iborat bo'lib, hushtagi yon tomonida, o'yinchoqlarning yuqori qismi tuxumning oqi qo'shilgan, sariq, qizil, yashil, ko'k rang bo'yoqlar bilan bo'yalib, chiziqlar bilan bezatilgan. Hunarmandning ishlaridan namunalar respublikamiz va xorijiy mamlakatlar muzeylari (Luvr, Parij, "Faentsa" jahon keramika muzeyi, Italiya, Ermitaj, Sankt-Peterburg va boshqalar)da saqlanadi [3, 47-bet].

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi eksponatlari orasida uning qo'zichoq, toychoq, sher va ertak qahramonlari shaklidagi hushtak-o'yinchoqlaridan namunalarini ko'rishingiz mumkin. Toychoq shaklidagi ayrim o'yinchoqlarda qadimiy qanotli otlarda mavjud bo'lganidek do'nglikni aks ettirilgan. Surxondaryolik usta R.Zuhurovning hushtaklari kuydirilgan qizg'ish jigarrang gildan yasalgan. Ular nafaqat tasvir va naqshlar, balki oddiy loy kertiklari bilan ham bezatilgan. [1, 16-b].

Shu o'rinda O'zbekistonning mashhur xushtak o'yinchoq yasash markazlari va ularning o'ziga xosliklari haqida to'xtalib o'tsak. Rishton (Farg'ona vodiysi). Bu hudud sopol ishlari bilan mashhur. Rishton ustalari rangli sirlangan sopol hushtaklar yasashgan. Ko'pincha qush va hayvon shaklida bo'lgan. Rishtonlik usta Alisher Nazirov sopol an'anasini davom ettirib, o'z asarlarida hushtaklarni ham targ'ib qilgan. Xorazm ustalari hushtaklarni oddiy shaklda, ammo jilvador naqshlar bilan yasashgan. Ayrimlari kichik idish yoki hayvon figurasini eslatadi. Buxoroda hushtaklar ko'pincha marosimiy ramz sifatida ishlatilgan. Buxoro ustalari ularni soddaroq, ammo mustahkam shaklda yasashgan. Toshkent va Samarqand. Bu hududlarda hushtaklar ko'proq bolalar o'yinchoqlari sifatida ishlatilgan. Ustalar ularni qush, echki, tuya, ba'zan inson qiyofasida ham yasashgan. Bugungi kunda hushtak o'yinchoqlar ko'proq xalq amaliy san'ati namunasi va sayyohlar uchun suvenir sifatida qadrlanadi. O'zbek xalq amaliy san'atida ko'plab ustalar hushtak o'yinchoqlarni yasalishi bilan mashhur bo'lgan. Shuningdek, Xorazm va Buxoro ustalarining nomlari xalq og'zaki ijodida, rivoyatlar va hikoyatlarda saqlanib qolgan.

Xushtak o'yinchoqlar xalqimizning qadimiy hunarmandchiligi, estetik qarashlari va bolalar tarbiyasidagi beqiyos ahamiyatini o'zida mujassam etadi. Loydan yasalgan bu kichik san'at asarlari nafaqat o'yinchoq sifatida, balki xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarining ifodachisi bo'lib xizmat

qiladi. O'zbekistonning turli hududlarida ijod qilgan ustalar - o'z mahorati, tasavvuri va ijodiy yondashuvi bilan bu hunarni asrab-avaylab kelmoqdalar. Bugungi kunda ham xushtak o'yinchoqlar milliy hunarmandchilikning muhim qismi sifatida muzeylarda, xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilib, o'zbek xalqining boy madaniy merosidan dalolat bermoqda. Ularni o'rganish va targ'ib etish kelajak avlodga milliy qadriyatlarni yetkazishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston amaliy san'ati durdonalari". Davlat ilmiy nashriyoti: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. "Print-ekspres servis" nashriyoti. 2013. 16-51-bet.
2. Bulatov S.S. "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati". –Toshkent. "Mehnat" nashriyoti, 1991. 287-bet.
3. O'zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san'ati. Ensiklopediya. Davlat ilmiy nashriyoti: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2017. 47-bet.